

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**OSTONOVA SANAM NEMATOVNA**

**MAROSIMLAR TASVIRLANGAN INGLIZ VA O‘ZBEK ETNOMADANIY  
KONTEKSTLARINI TARJIMADA BERISH USULLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

<https://buxdu.uz>

**UDK: [811.512.133:811.111]373.231:82-343**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**  
**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology**

**Ostonova Sanam Nematovna**

Marosimlar tasvirlangan ingliz va o'zbek etnomadaniy kontekstlarini tarjimada berish usullari ..... 3

**Остонова Санам Нематовна**

Методы перевода английских и узбекских этнокультурных контекстов описывающих ритуалы ..... 21

**Ostonova Sanam Nematovna**

Translation Methods of English and Uzbek Ethnocultural Contexts Describing Rituals..... 43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**OSTONOVA SANAM NEMATOVNA**

**MAROSIMLAR TASVIRLANGAN INGLIZ VA O‘ZBEK ETNOMADANIY  
KONTEKSTLARINI TARJIMADA BERISH USULLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.1.PhD/Fil649 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Rajabov Dilshod Zaripovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Gadoyeva Mavluyda Ibragimovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Qayumov Olim Sadriddinovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «25» iyun soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (387 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «11» iyun kuni tarqatildi.

(2024-yil «11» iyun dagi 24-05 - raqamli reestr bayonnomasi.)



**D.S.O'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

**F.M.Xajiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,  
dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tarjimashunosligida har bir xalqning marosimlarida uning tarixiy-madaniy anʼanalari, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, urf-odatlarini, eʼtiqodiy va axloqiy qarashlari barobarida til xususiyatlari ham aks etadiki, buni lingvomadaniy, lingvososiologik, etnolingvistik, etnofolkloristik jihatdan asoslash masalalariga alohida diqqat qaratilmoqda. Buning uchun marosimlarning etnomadaniy izohi keltirilgan matnlarni va ularga tegishli badiiy kontekstlarni aniqlash marosim matnlari ogʻzaki nutqning bir turi ekanini, tilda har bir marosim leksikasi borligini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligi, folklorshunosligi va tarjimashunosligida marosimlar talqini aks etgan etnomadaniy matnlar, ularda qoʻllangan realiyalar, etnografik leksik birliklar, marosimlarning tili masalasiga munosabat, marosimlar tilining tarjima muammolari, oʻzbek marosim folklori namunalari ingliz tiliga oʻgirilgan namunalarning tarjima xususiyatlari, ularda etnografik leksika yoki etnografizmlarning qoʻllanishi, badiiy-etnografik matnlarning tarjimasiga aloqador muammolarni oʻrganish boʻyicha izlanishlar olib borilmoqda. Oʻzbek marosimlari va ingliz xalqining marosimu urf-odatlarining tasviri va talqini aks etgan etnomadaniy kontekstlarning turlari, tarjima xususiyatlarini ilmiy oʻrganish hozirgi adabiyotshunoslik rivojining xususiyatlarini, janrlar takomilini, badiiy-estetik tajribalarning yangilanish ehtiyoji va ijtimoiy-psixologik asoslarini aniqlash hamda baholash imkonini berishi, yaratilgan asarlarning mazmun-mohiyatini, uslubiy yoʻnalishlarini chuqur anglash va oʻrganish masalalariga alohida diqqat qaratilmoqda.

“Bugungi kunda “Adabiy doʻstlik – abadiy doʻstlik” degan chuqur maʼnoli tamoyiliga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga gʻoyat jiddiy eʼtibor qaratilmoqda. Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki boʻlgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik boʻyicha oʻziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida taʼkidlash lozim”<sup>1</sup>. Jumladan, zamonaviy ingliz yozuvchilari asarlari milliy tarjimonlar tomonidan oʻzbek tiliga oʻgirilishi natijasida tarjimashunoslik maktabi yangi yoʻnalishda rivoj topmoqda. Shu jihatdan marosimlar tasvirlangan ingliz va oʻzbek etnomadaniy kontekstlarini tarjimada berish usullari yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. М. “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишининг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция материаллари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –Б. 56.

sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon folklorshunosligi, tilshunosligi va tarjimashunosligida marosimlar talqini aks etgan etnomadaniy matnlar, ularda qo‘llangan realiyalar, etnografik leksik birliklar haqida ayrim tadqiqotlarda ba‘zi fikr-mulohazalar keltirilgan<sup>2</sup>.

O‘zbek marosimlariga munosabat H.Vamberi, V.Nalivkin va M.Nalivkina, M.Pitersen, M.Dickens, M.Lou, R.Abazov, D.Kandiyoti, S.Fidokor<sup>3</sup> singari xorijlik olimlar tadqiqotlarida ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilshunosligida marosimlarning tili masalasiga munosabat N.Mirzaev, A.Jo‘raboev, Z.Husainova, Y.Bobojonov, Sh.Nurullaev, M.Qahhorova, N.Qurbonazarova ishlarida kuzatiladi<sup>4</sup>.

O‘zbek folklorshunosligida mavsumiy, to‘y, motam, so‘z sehriga asoslangan marosimlarning badiiy matnlari bo‘yicha M.Alaviya, B.Sarimsoqov, O.Safarov, M.Jo‘raev, U.Jumanazarov, S.Mirzaeva, D.O‘raeva, N.Qurbonova, S.Davlatov, N.Quronboeva, L.Xudoyqulova, M.Murodova, A.Shernazarovlarning tadqiqotlari alohida e‘tiborni tortadi<sup>5</sup>.

---

<sup>2</sup>Larina L.I. Terminologiya svadebnogo obryada kurskogo regiona v etnolingvisticheskom aspekte: Avtoref. diss.... kand. filol. nauk. – Voronej, 1990. – 14 s.; Suleymanova L.R. Leksika i frazeologiya pogrebavl’no-pominal’nogo obryada v bashkirskom yazike: Avtoref. diss.... kand. filol. nauk. – Ufa, 2006. – 25 s.; Krivoshapova Yu.A. Russkaya etnomologicheskaya leksika v etnolingvisticheskom osveshenii: Avtoref. diss.... kand. filol. nauk. – Ekaterinburg, 2007. – 23 s.; Manukyan D.D. Obryadovaya leksika v ruskoy i angliyskoy lingovokul’turax kak otrajeniye nacional’nogo mentaliteta: Avtoref. diss.... kand. filol. nauk. – Maykop, 2010. – 23 s.; Manukyan D. D. (soavt.). Angliyskaya svad’ba // J-1.: «Obrazovanie. Nauka. Tvorchestvo». – Nal’chik-Armavir. – 2010. – № 2. – S. 28-30.

<sup>3</sup>Vambery A. Sketches of Central Asia. Philadelphia: j. B. Lippincott & co.wm. H. Allen & co., 13, Waterloo Place, Pall mall, London.1868. – 444 r.; Nalivkin V., Nalivkina M. Ocherki bita jenshini osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergani. – Kazan’: Universitet, 1886. – 203 s.; Petersen M. A Treasury of Uzbek Legends and Lore. – T.: Qatortol-Kamolot, 2000. – 180 p.; www.google.ru Uzbek Music by Mark Dickens; Louw M.E. Everyday Islam in Post-Soviet Central Asia. – USA.: Routledge, 2007. – 208 p.; Abazov R. Culture and Customs of the Central Asian Republics. – London: Greenwood Press. Westport, Connecticut. 2007. – 325 p.; Kandiyoti D. and Azimova N. The communal and the sacred: women’s worlds of ritual in Uzbekistan // The Journal of the Royal Anthropological Institute. Royal Anthropological Institute of Great Britain and Ireland, 2004. –Vol.10, No. 2. – rr. 327-349.; www.millifolklor.com The Lament Tradition Among The Uzbeks.

<sup>4</sup>Mirzaev N. Etnograficheskaya leksika uzbekskogo yazika: Diss.... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1971. – 134 s.; Djuraboev A. Nazvaniya svadebnix serimoniy v uzbekskom yazike: Diss.... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1971. – 122 s.; Xusainova Z. To‘y marosimlari nomlarining onomasiologik tadqiqi (Buxoro guruh shevalari asosida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1984. – 132 b.; Bobojonov Y. Motam marosimlariga oid etnografizmlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1997. – №4. – B.57-58; Bobojonov Y. Janubiy Xorazm etnografik leksikasi: filol. fan. nomzodi diss....avtoref. – T., 1997. – 26 b.; Nurullaeva SH. Turkiston qarluq til shevalarida to‘y marosimi nomlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2001. – 138 b.; Qahhorova M. To‘y marosimi bilan bog‘liq birliklarning semantik tahlili // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2007. – №3. – B.87-89; N.Kurbanazarova. Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvistik tadqiqi: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Termiz, 2021. – 131 b.

<sup>5</sup>Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974; Sarimsoqov B. o‘zbek marosim fol’klori. – Toshkent: Fan, 1986; Jumanazarov U. To‘y marosim fol’klorida olqish janri / O‘zbek fol’klorshunosligi masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – B.100–107; Safarov O. “Kelin o‘tirsin” va “Kuyov o‘tirsin” marosimi qo‘shiqlari (Buxoro

O'zbek tarjimashunosligida marosimlar tilining tarjima muammolari R.Kasimova tadqiqotida kuzatiladi. Bu tadqiqotda o'zbek marosim fol'klori namunalardan ingliz tiliga o'girilgan namunalarning tarjima xususiyatlari, saviyasi, ularda etnografik leksika yoki etnografizmlarning qo'llanishi, bunday badiiy-etnografik matnlarning tarjimasiga aloqador muammolar maxsus o'rganilgan <sup>6</sup>.

Z.Z.Gafarova tadqiqotida matnda axborot taqsimotida remaning roli (ingliz tili materiali misolida) tadqiq qilingan <sup>7</sup>.

Ushbu tadqiqotda o'zbek marosimlari va ingliz xalqining marosimu urf-odatlarining tasviri va talqini aks etgan etnomadaniy kontekstlarning turlari, tarjima xususiyatlarini tadqiq qilish ko'zda tutilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Buxoro davlat universitetining "Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy-tipologik izlanishlar va tarjimashunoslik muammolari" mavzuidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liq ravishda amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** marosimlar tasvirlangan ingliz va o'zbek etnomadaniy kontekst turlarini va ularni tarjimada berish usullarini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

folklorda "matn" tushunchasi, matn turlarini yaratishda til va nutqning o'zni hamda munosabati, ingliz va o'zbek tillarida marosimlar tasvirlangan matnning og'zaki, yozma ko'rinishlariga xos umumiy, xususiy belgilarni aniqlash;

ingliz va o'zbek mavsumiy, oilaviy-maishiy marosimlariga oid tushunchalarning badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop matnlar orqali berilishini asoslash; marosimlar asosida yaxlit etnomadaniy kontekst tuzish tamoyillarini belgilash hamda ularda ifodalangan marosim leksikasining ifoda xususiyatlarini aniqlash;

o'zbek hamda ingliz lingvomadaniyatida marosim leksikasining strukturaviy-semantikasidagi muqobillik va tafovvutlarni freym tahlillar asosida ochib berish;

o'zbek va ingliz tillarida marosimlar tasvirlangan kontekstlarda milliy tushuncha va atributlar atamalarini tarjimada ifodalash usullarini dalillash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida marosimlar tasvirlangan ingliz va o'zbek etnomadaniy kontekstlari, ularning o'zaro bevosita yoki bilvosita tarjima matnlari tanlangan.

---

nikoh to'ylari misolida) // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1989. – №5. – B.35–36; Safarov O. "Kuyov eltish" va "Kelin eltish" udumlari va janrlari // o'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1991. – №6. – B.35–36; Jo'raev M. "Kelin tushdi" marosimi. – Toshkent: Respublika xalq ijodiyoti markazi, 2002. – B.7-8; Mirzaeva S. o'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. – T.: Istiqlol. – 96 b.; O'raeva D. O'zbek motam marosimi fol'klarining janriy tarkibi, genezisi va badiiyati: Filol. fan. d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent, 2005. – 35 b.; Qurbonova N. O'zbek bolalar marosim fol'klori: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1994; Davlatov S. Qashqadaryo vohasi O'zbek to'y marosimlari fol'klori: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1996; Xudoyqulova L. Surxondaryo to'y marosimi qo'shiqlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2011. – B. 86-87; Murodova M.SH. O'zbek nikoh to'yi fol'klarining janrlar tarkibi va badiiyati (O'rta Zarafshon vohasi materiallari misolida): Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 53 b.; Shernazarov A.A. Qashqadaryo tojik marosim fol'klarida ikki tillilik va adabiy taʼsir anʼyanasi: Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent, 2018. – 156 b.

<sup>6</sup> Kasimova R.R. O'zbek to'y va motam marosim fol'klori matnlarining inglizcha tarjimasida etnografizmlarning berilishi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T., 2018. – 252 b.

<sup>7</sup> Gafarova Z.Z. Matnda axborot taqsimotida remaning roli (ingliz tili materiali misolida): Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. ... avtoref. – Buxoro, 2021. – 52 b.

**Tadqiqotning predmetini** marosimlar tasvirlangan ingliz va o'zbek etnomadaniy kontekstlarining milliy xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, tavsifiy-miqdoriy, kontekstual-situativ, kontekstual-distributiv va komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek marosimlariga oid matnlar asosan og'zaki badiiy shaklda yaratilgani, poetik nutq hosilasi ekani, ularning har biri o'ziga xos leksikaga egaligi va ushbu matnlar millat mentalitetiga xos bo'lgan mantiqiy, lisoniy, madaniy-axloqiy tafakkurning verballashuv hodisasi sifatida namoyon bo'lishi asoslangan;

har ikkala tilda marosimlar bilan bog'liq matnlarda o'sha xalq milliy-madaniy turmush tarzi, psixologiyasi, dunyoqarashi, orzu-istaklari, axloqiy-ta'limiy qarashlari etnofolkloristik, etnolingvistik, lingvososiologik, lingvokulturologik kabi lingvistik hamda ekstralingvistik omillar asosida vujudga kelishi isbotlangan;

qiyoslanayotgan tillardagi etnomadaniy kontekstlarning mavzuiy guruhlari o'rtasidagi mushtaraklik urf-odat, rasm-rusumlar, e'tiqodiy qarashlar, tarixiy, maishiy, tabiat va taqvim bilan bog'liq mavsumiy, to'y, motamga asoslangan marosim matnlar misolida voqelanishi va ular o'rtasidagi tafovutning tarixiy shartlanish sabablari dalillangan;

o'zbek marosim matnlarining inglizcha tarjimasida etnomadaniy kontekstlar kompensatsiya, eksplikatsiya, generalizatsiya, leksik-semantik almashtirish kabi leksik; to'liq muvofiqlik, qisman muvofiqlik va nomuvofiqlik kabi morfologik; permutatsiya, substitutsiya, additsiya, tushirib qoldirish kabi sintaktik transformatsiya usullarining funktsionallik samaradorligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

marosimlar tasvirlangan ingliz va o'zbek etnomadaniy kontekstlarining asliyatdan tarjima qilinishi bilan bog'liq muammolarni qiyosiy aspektda o'rganish va echimlarini aniqlash orqali chiqarilgan xulosalar tarjimashunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar beradi, unga doir darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan;

ommaviy axborot vositalarida marosimlarning milliy qadriyat sifatidagi mohiyatini, bir xalq ikkinchi bir xalqning marosimlariga hurmat ruhida qarashi lozimligini keng targ'ib va tashviq qilishda manba vazifasini bajarishi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning aniq qo'yilganligi, olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, tadqiqotda zamonaviy tarjimashunoslik yutuqlaridan kelib chiqqan holda chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-tipologik, tavsifiy-miqdoriy, kontekstual-situativ, kontekstual-distributiv va komponent taxlil usullari orqali dalillanganligi bilan belgilanadi; nazariy fikr va natijalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan xulosalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek xalqlari marosimlari tizimining kelib chiqishi, taraqqiyot xususiyatlari, milliy qirralarini nafaqat qiyosiy o'rganishda, balki ular asosida yaratilgan etnomadaniy kontekstlarning tarjimasini asliyat va tarjima orasidagi mazmuniy-uslubiy muvofiqlikka ko'ra farqlash va o'rganish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan oliy, o'rta maxsus ta'lim tizimida "Angliya adabiyoti", "Jahon adabiyoti tarixi", "Tarjima nazariyasi", "Stilistika", "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanlaridan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda, tarjimashunoslik bo'yicha kurs va bitiruv-malakaviy ishlarini yozishda, magistrlik, doktorlik dissertasiyalarini tayyorlashda, maxsus kurslar o'tishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Marosimlar tasvirlangan ingliz va o'zbek etnomadaniy kontekstlarini tarjimada berish usullarini aniqlash asosida erishilgan natijalardan:

ingliz va o'zbek marosimlariga oid matnlar asosan og'zaki badiiy shaklda yaratilgani, poetik nutq hosilasi ekani, ularning har biri o'ziga xos leksikaga egaligi va ushbu matnlar millat mentalitetiga xos bo'lgan mantiqiy, lisoniy, madaniy-axloqiy tafakkurning verballashuv hodisasi ekanligiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2012-2016 yillarda bajarilgan F1-FA-0-43429, FA-F1, G002 "Qoraqalpoq fol'klori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" hamda 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq fol'klorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2021-yil 14-martdagi №17.01/20-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek tillarida fol'klor matnlari, xususan, badiiy-etnografik mohiyatga ega marosim matnlarida marosim leksikasining qo'llanishi, tarjima qilish muammo va echimlari, ularga xos shakli va uslubiy belgilarni tarjimada saqlash yo'llari ko'rsatib berilgan;

har ikkala tilda marosimlar bilan bog'liq matnlarda o'sha xalq milliy-madaniy turmush tarzi, psixologiyasi, dunyoqarashi, orzu-istaklari, axloqiy-ta'limiy qarashlari etnofolkloristik, etnolingvistik, lingvososiologik, lingvokulturologik kabi lingvistik hamda ekstralingvistik omillar asosida vujudga kelishiga oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 10-maydagi №1197/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha maqsadlaridan biri hisoblangan marosimlar tasvirlangan ingliz va o'zbek etnomadaniy kontekstlarining asliyatdan tarjima qilinishi bilan bog'liq masalalarga oydinlik kiritishga xizmat qilgan;

qiyoslanayotgan tillardagi etnomadaniy kontekstlarning mavzuiy guruhlari o'rtasidagi mushtaraklik urf-odat, rasm-rusumlar, e'tiqodiy qarashlar, tarixiy, maishiy, tabiat va taqvim bilan bog'liq mavsumiy, to'y, motamga asoslangan marosim matnlar misolida namoyon bo'lishi va ular o'rtasidagi tafovutning tarixiy shartlanish sabablari bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Assalom, Buxoro", "Zamondosh" kabi turkum ko'rsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2021-yil 8-noyabrdagi №1/294-son ma'lumotnomasi). Natijada ommaviy axborot vositalarida marosimlarning milliy qadriyat sifatidagi

mohiyatini, bir xalq ikkinchi bir xalqning marosimlariga hurmat ruhida qarashi lozimligini keng targ'ib va tashviq qilishda manba vazifasi uchun zamin yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 145 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriylanishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha malumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Matn” tushunchasi va uning turlari**” deb atalgan bo'lib, ikki fasldan tarkib topgan. Birinchi fasl **“Fol'klorda “matn” tushunchasi hamda unda til va nutq munosabati**” deb nomlangan.

“Matn” tushunchasiga munosabat, u haqdagi qarashlar tilshunos va adabiyotshunoslar orasida juda xilma-xildir. Masalan, tilshunoslar o'rtasida til tizimiga mansubmi yoki u nutqning hosilasimi, degan savol haligacha hal qilinmagan bo'lsa, adabiyotshunoslar uchun matn ijodkor poetik tafakkurining hosilasidir. Matnga xos tipologik xususiyatlar quyidagilardan iborat: 1. Matn – og'zakimi, yozmami – qaysi shaklda bo'lishidan qat'i nazar nutq hosilasi. 2. Matnning asosiy xususiyati uning informativligi, ya'ni axborot uzatishga xoslanganidir. Axborot esa nafaqat ishlab chiqarishni, balki idrok etishni ham o'z ichiga oladi, shuning uchun matn nazariyasining muhim jihati uni idrok etish muammosidir. 3. Matn til darajalari nazariyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Shu munosabat bilan uni matn va gap, matn va gapning tabiati hamda munosabati asosida o'rganishga to'g'ri keladi. 4. Matnning umumiy nazariyasida markaziy o'rinni tipologiya yoki matn turlarini tanlash egallaydi. Ammo uning umumiy mezonlari belgilanmagan. Jumladan, marosimlar ifodasiga qaratilgan matnlarning tabiati, o'ziga xos belgilari aniqlanmaganini alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi.

Kuzatishlarimiz marosim matnlari matnning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri bo'lib, **“vertikal kontekst”** sifatida namoyon bo'ladi. Bunda ko'pincha uning iqtibos va matn hamda prototekstning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'lgan kontekst ekani ko'rinadi. Masalan, quyidagi matn o'zbeklarning **“Beshik to'yi”** marosimi haqida vertikal (tik) ko'rinishda yaratilgan bo'lib, uning ichida gorizontalar tarzda keltirilgan izohlar, ayrim so'zlar esa bu marosim mohiyatini ochishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir: **“Beshik tuyi – lullaby wedding baby. When the baby for the first time put into the cradle, the mother of the bride brings her daughter a new cradle with its accessories, swings, toys, bicycles, preparing food. All this she brings home of her**

daughter. She is accompanied by 40-50 persons. On the feast are invited exclusively women. Each comes with togora and Sarup for the newborn and wish him health, wealth and good fortune”<sup>8</sup>.

“Beshik to’yi – chaqaloq beshik to’yi. Chaqaloq birinchi marta beshikka solinganida, kelinning onasi qiziga yangi beshik olib keladi, uning aksessuarlari, belanchaklar, o’yinchoqlar, velosipedlar va turli ovqatlar tayyorlanadi. Bularning barchasi qiz tushgan xonadonga olib kelinadi. Unga 40-50 kishi hamrohlik qiladi. To’yga faqat ayollar taklif etiladi. Yangi tug’ilgan chaqaloqqa har biri tog’ora va sarpo olib keladi hamda bolaga sog’lik, boylik va omad tilaydilar”.

Keltirilgan matnda tug’ilgan chaqaloq uchun uning onasi tomonidan keltiriladigan beshik va sovg’a-salomlar, marosimda qatnashadigan mehmonlar haqida ma’lumotlar berilmoqda. Bunda “beshik” so’zi vazifasiga ko’ra, unga yaqin bo’lgan “cradle” so’zi bilan berilayotgan bo’lsa-da, ammo baribir u milliy mohiyatga ega “beshik” tushunchasini o’zida to’liq ifodalay olmaydi. Shu o’rinda bu so’z maxsus izohni talab etadi. Natijada matn ichida yana bir kichik “iqtibos matn”ga ehtiyoj seziladi. Uni matn ichida yoki ostida berishga to’g’ri keladi.

Zamonaviy lingvistikada diskurs va matn munosabati ham e’tiborli masalalardan biridir. “Diskurs” va “matn” juda keng va noaniq tushunchalar bo’lgani uchun murakkab hisoblanadi. XX asrning 50-yillarida Emil Benveniste fransuz tilidan olib kirgan “so’zlovchi tomonidan o’zlashtirilgan nutq” ma’nosidagi “diskurs”, Zelig Xarris qo’llagan “diskurs tahlil” atamalari alohida e’tiborni tortadi.

Benveniste nutqni so’zlovchining gapdagi o’rmini izohlash sifatida tushuntirsa, T.A. van Deyk fikricha, nutq – ma’lum vaqt va fazoviy sharoitda kommunikativ harakat jarayonida so’zlovchi hamda tinglovchi o’rtasida yuzaga keladigan murakkab kommunikativ hodisadir. Bu kommunikativ harakat esa og’zaki, yozma, og’zaki va og’zaki bo’lmagan tarkibiy qismlarga ega bo’lishi mumkin. Masalan, o’zbek fol’kloridagi yigit bilan qizning o’lan, lapar aytishuvi nutq hodisasini bunga misol qilib ko’rsatish mumkin.

Boy: By singing *yor-yor o`lans* I tune,  
Galloping my horse I go tracing you.  
If I reach a shepherd’s girl, not charm much, hey,  
By your tender waist, I’ll embrace you.

Girl: Hey, may your horse slip, can’t reach me,  
May a shepherd boy be left on the desert.  
Hey when you wander in the desert, steppe,  
May coyotes pull you down by your feet<sup>9</sup>.

Keltirilgan bu misol yigit bilan qizning o’lan aytishuvi matnidir. Bunday she’riy matnlar dialog, munozara, hozirjavoblik va improvizatsiyaga asoslanishi bilan ajralib turadi. Unda fikrning fikrga, so’zning so’zga ulanayotgani janr tabiati belgilanishi va janr nomi tanlanishiga zamin yaratgan. Eng muhimi yuqorida keltirilgan matnni T.A. van Deyk kabi diskursda, tor ma’noda, kommunikativ harakatning og’zaki komponenti, “og’zaki matn” yoki “adabiy suhbat” deb ham ko’rsatish mumkin. Chunki nutq kommunikativ harakatning og’zaki yoki yozma, tugallangan yoki davom etuvchi mahsuloti, uning natijasidir.

<sup>8</sup> Turdiyeva S. T. Ethnografisms in Uzbek and English languages. – Termez, 2012. – P. 29.

<sup>9</sup> Intangible Cultural Heritage Elements of Ferghana Valley, 2012. – R.34.

Fol'klor asarlari matni, odatda, an'anaviyligi bilan e'tiborni tortadi. Xususan, marosimiy matnlar qat'iyli, og'izdan-og'izga o'tib yashasa-da, ko'pincha o'zgarishsiz avloddan avlodga o'tib kelayotgani kuzatiladi.

Bizningcha, matn tugallik fikr va mantiqqa ega, ob'ektivlashtirilgan, ijodiy ishlangan, adabiy sayqallangan, sarlavha berilgan (yoki berilmagan) og'zaki yoki yozma yaratilgan, leksik, grammatik, uslubiy bog'lanishli, ma'lum maqsad va vazifaga ega nutq hosilasidir.

Ma'lumki, marosim matnlarida sarlavhalar bo'lmaydi, ammo ularning she'riy matnlari so'nggida qo'llangan takror so'zlar, aniqrog'i, qofiyadan so'ng keltirilgan radif vazifasidagi jumlar orqali ular turkumlanadi, umumiyashtiriladi. Jumladan, yor-yorlar, kelinsalomlar tarzida. Yana bir tomoni, ularning yaratuvchilari hech qachon aniq ko'rsatilmaydi. Umumiy qilib, yaratuvchisi "xalq" deyiladi. Ularga biror kishi "yaratuvchisi menman" degan da'voni ham qilmaydi.

Agar fol'klor matniga diskurs tahlil vositasida yondashilsa, ularda nutq ifodasi, matn tuzilishi, matnning qanday kommunikativ vaziyatda shakllantirilgani, unda aytuvchining o'rni, holati, vaziyatni qabul qilishi va baholashi, yuz bergan yoki yuz berayotgan voqelikka bahosi, matn tarkibida dialogning o'rni kabilarga e'tibor qaratiladi. Natijada nutq shaxsning nutq faoliyatiga nisbatan aniqroq ifodalangan ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan kategoriya sifatida tushuniladi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli "Ingliz va o'zbek tillarida marosimlar tasvirlangan matn turlari" tarzida nomlangan. Marosimlarni izohlaydigan matnlar orqali ularning kelib chiqish tarixini, o'tkazilish maqsadi va tarzini bilib olish, bu marosimlar jarayonida amalga oshiriladigan rituallarni chog'ishtirish natijasida ularning bir-biriga o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash imkoni tug'iladi. Shuningdek, marosim jarayoni, marosim ovqatlari, ularning tayyorlanishi, dasturxonga tortilishi, turlari, milliylik, lokallik kasb etishi oydinlashadi. Marosim predmetlari xalqning yashash joyiga, madaniy turmush tarziga, e'tiqodiy qarashlariga binoan farqlanishi ayonlashadi. Xususan, marosim fol'kloridan iborat verbal komponent og'izdan-og'izga, avlodan-avlodga o'tish jarayonida variantlashishi kuzatiladi. Marosimiy matnlarda qo'llanuvchi so'zlar xalqning ijtimoiy hayoti bilan bog'liqligi sababli ularning boshqa tillarda ekvivalentlari mavjud bo'lmaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ingliz va o'zbek mavsumiy hamda oilaviy-maishiy marosimlariga oid tushunchalarning matnlarda berilishi**" deb nomlangan. Bu bob ikki faslga ajratilgan. Ilk fasl "Ingliz va o'zbek mavsumiy marosimlariga oid tushunchalarning matnlarda ifodalanishi" deb atalgan.

Marosimlar mazmunini hayotiy voqealar tashkil etadi. Ularda muayyan bir hayot voqeligi rasmiy yoki ruhiy vaziyatda qayd qilinadi. Agar bu voqelik inson xotirasi bilan bog'liq bo'lsa, qadriyat sifatida nishonlanadi. Ulara inson nimani (ko'pincha hayotni, tiriklikni, mehnatni, vaqtni) qadrlashi aks etadi.

Marosim o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, ingliz tilida "ritual" so'z bilan yuritiladi. Marosimlar qachon o'tkazilishiga qarab ikkiga bo'linadi. Bular: 1. Kundalik (ma'lum bir kunni belgilab o'tkaziladigan) marosimlar. U yana kundalik, haftalik, oylik marosimlar ko'rinishlarida o'tkazilishi mumkin. 2. Mavsumiy (ma'lum bir faslda o'tkaziladigan) marosimlar. Ba'zan yillik yoki

mavsumiy marosimlar deb ham ko'rsatiladi. Uning Angliyada quyidagi ko'rinishlari uchraydi:

Diniy bayramlar: Yom Kippur (Yom Kippur), Hanukah (Xanuka), Diwali (Divali), Ramadan (Ramazon), Easter Pasxa), Christmas (Rojdetsvo).

Madaniy bayramlar: St. Patrick's Day (Avliyo Patrik kuni), Día de Muertos (Dia de Muertos), Kwanza (Kvanza), New Year (Yangi yil).

Milliy bayramlar: President's Day (Prezident kuni), Memorial Day (Xotira kuni), 4th of July (4-iyul'), Thanksgiving (Shukrona kuni).

Mavsumlar: fishing or hunting season (baliq ovlash yoki ov mavsumi), solstice celebrations (kunni nishonlash), apple picking (olma terish), summer camping, seasonal sports and play off games (mavsumiy sport va pley-off o'yinlari).

Marosimlarning katta qismini oilaviy-maishiy marosimlar tashkil qiladi. Rojdestvo, Chanukah yoki Ramazon kabi diniy bayramlar, Divali, Xellouin, tug'ilgan kunlar, onalar kuni va otalar kuni marosimlari bunga misol bo'la oladi.

Mavsumiy marosimlar yil fasllariga qarab to'rtga bo'lib o'rganiladi. 1. Bahorgi marosimlar. O'zbeklarda yomg'ir chaqirish bilan bog'liq "Sust xotin", "Barot keldi", "Boychechak", "Navro'z", "Ramazon" marosimlari bilan bog'liq badiiy matnlar borligi aniqlangan.

Merilin Pitersenning "Treasury of Uzbek Legends and Lore" (o'zbek afsona va rivoyatlari xazinasini) kitobida<sup>10</sup> Navro'zning, sumalakning kelib chiqishi haqidagi izohlar, afsonalar, ular bilan bog'liq qo'shiqlar tarjimasi keltirilgan.

Bahorgi marosimlardan bo'lgan "Easter holiday" inglizlar odatiga ko'ra, yilning aprel' oyida o'tkaziladi. U Buyuk Britaniyadagi eng mashhur bayram va marosimlardan biridir. Bu bayram, asosan, yakshanba kunida o'tkazilishi ko'zda tutiladi. Unda inglizlar bir-birlariga pasxa yakshanbasi deb, shokolad bilan bo'yalgan tuxumlarni tarqatib, "qayta tug'ilish" tilagini izhor qiladilar.

Inglizlarning yana bir bahorgi marosimi o'rmon va yashil tabiat ruhi ramzi "Jack-in-the-Green", ya'ni "Yashinga burkangan Jack" deb nomlangan bo'lib, ko'proq agrar mazmun kasb etadi. U o'zida dehqonlarning yuqori hosil olish orzusini ifoda etadi. Uni o'tkazishda dehqonlar bir yigit tanasini ko'kliklar bilan o'rab, uni yashil Jek qiyofasida gavalantiradilar. So'ngra unga ergashib, shahar yo qishloq bo'ylab raqsga tushib, marosim ziyofati uchun mablag' yig'adilar. So'ngra uni barcha bilan baham ko'radilar.

2. Yozgi marosim. "Choy momo" marosimi shamol to'xtatishga qaratilgan. Bunda marosim nomidagi "choy" ichimlik turini anglatuvchi "choy" so'zi emas, u qadimgi turkiy tildagi "Chuy" so'zining talaffuzda transformativ o'zgarishga uchragan shaklidir. U aslida qadimgi turkiy tilda "shamol" tushunchasini ifodalashga xizmat qilgan.

M.Pitersen "The Holiday of Sand" – "Qum bayrami" matnini o'z tarjimasida bergan.<sup>11</sup> Muayyan ishonch-e'tiqodlar tufayli ayni saratonda ayrim kishilar bel, oyoq og'riga shifo istab, qum sayliga borishadi. Shu real voqelik sayl qo'shiqlarida alohida berilgan:

Qum saylidan rivoyat.  
Aytib beray hikoyat.

A tale from the Holiday of Sand,  
Let me narrate it for you,

<sup>10</sup> Petersen Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Toshkent: Qatortol-Kamolot, 2000.

<sup>11</sup> Petersen Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Tashkent: Qatortol - Kamolot, 2000. – P.143.

Har yili qumga borish.  
Buxoroda bir odat.

To go each year to the desert land,  
Is what the people of Bukhara do.

Marosim qo'shiqlari matnida sahro sehrli, malham bulog'i, qizlarning qizil yuziday yongan, lola yanglig' qizil, otashin sahro kabi sifatlovchi va sifatlanmish, aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlarida ta'rif-tavsiflanganiga guvoh bo'lish mumkin.

3. Kuzgi marosimlar. O'zbeklar orasida qadimdan o'tkazilib kelingan "Mehrjon" – Quyoshni alqash bayrami (ikkinchi nomi "Satta" yoki "Sada"), hosil bayrami, Oblo-baraka (so'nggi tutam bug'doyni o'rib olish marosimi, ikkinchi nomi "Ona bug'doy" marosimi) kabilar bunga misol bo'ladi. Ularning ham matnlari borligi aniqlangan.

Haloween (All Hallows Event) – "Barcha ruhlar kechasi" inglizlarning kuzgi marosimlaridan biri hisoblanadi. U Evropa davlatlarida mashhur bo'lgan qo'rqinchli marosim, ya'ni o'liklar bayramidir. Xellouin ayozi, zulmat, qabohat va o'lim (yoki murdalar) "xudosi" bo'lgan Samayn nomi bilan bog'liq marosim deyiladi. Uni dastlab hozirgi Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya hududidagi xalqlar nishonlashgan. Sovuq kunlar arafasida 31 oktyabrdan 1 noyabrga o'tar kechasi barcha chiroqlar, shamlar, fonuslar, olov va uchoqlar o'chirilgan. Qorong'u zulmat ichra odamlar o'lim farishtasiga hamdu sanolar o'qishgan. "Haloween" marosimida kattayu kichik oshqovoqdan tayyorlangan maska, qo'rqinchli maskarad kostyumlar kiyib, bolajonlarni qo'rqitish uchun eshiklarga "tricko-trick" ashulasini aytib borishgan. Ular turli xildagi konfetlar, sovg'alar yig'ishgan.

4. Qishki marosimlar. M. Pitersen O'zbek xalqining "Birinchi qor" marosimi "The Holiday of First Snow" haqida birinchilardan bo'lib inglizcha kitobxonlarga ma'lumot bergan olimadir. O'zbek shoiri Ulug'bek Hamdam akasining o'limida bag'ishlangan she'rida birinchi qor marosimiga ishora qiladi.

"Birinchi qor" marosimi "The Holiday of First Snow" dunyo xalqlari orasida keng tarqalgan qadimiy va an'anaviy marosimlardan biridir. Uni qishda marhum qabri ustiga yog'ilgan birinchi qor munosabati bilan o'tkazishgan. Shu orqali marhumning "qayta tirilgani" qayd etilgan. Bu marosim O'z qo'shiqlariga ham ega. M.Piterson ularni "Songs of the First Snow" – "Birinchi qor marosimi qo'shiqlari" nomi bilan o'z kitobida alohida keltirib o'tgan.

O'zbeklarda yana qish bilan bog'liq bo'lgan "Yas-yusun" marosimi ham mavjud. Bu marosim qish paytida erkaklarning dam olish, bo'za ichib ko'ngilxushlik qilish tadbiri hisoblanadi va unda ayollar ishtirok etmaydi.

Ma'lumki, barcha xalqlarda yangi yilni nishonlash o'ziga xos an'analarga ega. Sharq xalqlarida, odatda, yangi yil Navro'zda nishonlangan, lekin keyinchalik yangi yil marosimi sifatida emas, bayram sifatida, ya'ni Sharq G'arbda 31 dekabrdan – 1 yanvarga o'tar kechasi nishonlanadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "Ingliz va O'zbek oilaviy marosimlariga oid tushunchalarning matnlardagi ifodasi" deb atalgan.

Marosimlarning bir turini oilaviy-maishiy marosimlar tashkil qiladi. Bu jihatdan ular ikkita katta guruhga bo'linadi: 1. To'y marosimi. 2. Motam (aza) marosimi.

Marosimlar insonning yoshiga qarab ham farq qiladi: 1. Bolalar marosimlariga ko'pincha chaqaloqlar uchun o'tkaziladigan besh kecha, to'qqiz kecha, beshik to'yi,

ot to'yi, ism qo'ydi, tish to'yi va soch to'ylari mansubdir. Demak, bunday marosimlar nomlanishidan ko'rinib turibdiki, chaqaloq hayotidagi o'sish-o'zgarishlarni qayd etish uchun o'tkaziladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloq hayoti bilan bog'liq turli irim-sirimlar, urf-odat va marosimlar britaniyaliklarga ham xos. Masalan, ularda bolaning boshini namlash odati nasroniylarning cho'qintirish marosimidan kelib chiqqan bo'lib, chaqaloqning boshiga muqaddas suv sepiladi.

2. Balog'at yoshidagi yigit-qizlar uchun o'tkaziladigan marosimlar: nikoh marosimi.

3. Katta yoshlilar uchun o'tkaziladigan marosimlar: soqol-mo'ylov to'ylari erkak jinsidagilar uchun bo'lsa, lachak to'yi, ya'ni sallabandon ayollar to'yi hisoblanadi. Bundan tashqari, 63 yoshda musulmonlar "payg'ambar to'yi" ham qilishadi. Ammo uning maxsus matni mavjud emas.

Ingliz to'ylarida uyushtiriladigan qiziq an'analardan biri "Hen" va "Stag" bazmlarining o'tkazilishidir. "Hen party" atamasi birinchi marta Britaniya matbuoti tomonidan 1881 yilda qirolicha Viktoriya tomonidan qizi malika Elis va boshqa zodagon ayollar uchun uyushtirilgan kechki ovqatni tasvirlash uchun ishlatilgan bo'lsa, "Stag party" atamasi birinchi marta 1930 yillarda ishlatilgan. Odatda, u erkaklar tomonidan o'tkaziladigan o'yin-kulgi va ichimlik oqshomi sifatida tasvirlangan.

Motam marosimi – inson o'limi yuz berganda o'tkaziladigan yig'in turidir. Motam, ya'ni aza va u bilan bog'liq bo'lgan maxsus so'zlar mavjud. Bunga o'zbek tilida *motam marosimi, aza, azador, motamsaro, azaxona, motam taomi, dafn marosimi, uch, yigirma, qirq, yil sindi, ellik ikki, payshanbalik, shuttuk (moychiroq), jumalik, aza kiydi, aza echdi, azaga bordi, azadan chiqdi, go'yanda* va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ingliz tilida motam marosimi leksikasida mourning (motam), mourning ceremony (motam marosimi), sad (aza), the burial (dafn), mourning food (motam taomi), funeral (janoza), funeral ceremony (janoza marosimi), dead (o'lik), death (o'lim), the shroud (kafan), the coffin (tobut), cemetery (qabriston), spirit (ruh), condolences (taъziya) kabi so'z va birikmalarning faolligi ko'rinadi.

Sanab o'tilgan bu so'zlar motam marosimiga oid matnlarning asosiy kalit so'zlari hisoblanadi. Ularning qo'llanishiga qarab, yaratilgan matnning bevosita motam marosimiga oidligi bilinib turadi.

Buyuk Britaniyada o'lim to'g'risida, odatda, mahalliy gazetada e'lon qilingan o'lim haqidagi xabar va dafn marosimi tafsilotlarini o'z ichiga olgan matnlardan bilib oladilar. XX asrda jamiyatdagi har bir kishining o'limi va dafn marosimi haqidagi maълumotlar muntazam ravishda e'lon qilinib, ularga mahalliy aristokratiya aъzolari sifatida teng maqom berilib, "oddiy odam" nekrologi paydo bo'ldi. Nekrolog – marhum haqida xabar beruvchi matndir.

Motam uzugini taqish Shekspir dafn marosimining muhim bir atributi bo'lgan, ammo u hozir saqlanmagan, yo'q bo'lib ketdi. Bunda uzuk marhumni, o'limni xotirlash uchun qilingan, ularda ko'pincha bosh suyagi, tobut yoki xoch tasvirlangan.

Dafn aravasi (tobutni ko'taruvchi dafn mashinasi) hali ham Buyuk Britaniyadagi dafn marosimlarida qo'llaniladi. Bu avtoulavlar uchun qonunlar yo'q.

Garchi hozirga kelib, ot va arava kortejlari davri o'tgan bo'lsa ham, dafn marosimlarida yoki to'ylarda ulardan foydalanish anʼanasi saqlanib kelmoqda. Ular to manzilga borguncha, to'xtab-to'xtab harakatlantiriladi. Bu o'ziga xos hurmat ramzi hisoblanadi.

Dafn shamlari va gullari ham Britaniya motam marosimidagi muhim atributlardan biridir. Uyg'onish davrida xonadagi shamlar bilan birga gullar, odatda, yoqimsiz hidlarni yashirish uchun ishlatilgan.

Dissertasiyaning uchinchi bobi **“O'zbek hamda ingliz lingvomadaniyatida marosim leksikasining strukturaviy-semantikasidagi muqobillik va tafovvutlar”** deb atalgan. Bu bob uch fasldan tashkil topgan. Bobning birinchi faslida “O'zbek va ingliz til madaniyatlaridagi marosim leksikasining strukturaviy-semantik xususiyatlari” nazardan o'tkazilgan.

Ritual matnlar marosimlarning anʼanalari haqida tushuncha bera olishi bilan muhimdir. Agar ritual matnlarining leksik birliklari semantikasi ochilsa, u aloqador bo'lgan marosimning umumiy tuzilishi, predmetlarining ramziyligi, marosim belgilari va boshqalar haqida ham ma'lumot beradi.

To'y, odatda, barcha xalqlarda to'ydan oldin, to'y kuni, to'ydan keyingi tadbirlar nomi bilan bog'liq b'ladi. Ularning barchasi to'y, to'ychi, to'y ziyofati, to'y oshi kabi bir qator s'ozlar bilan birga to'y marosimining lug'at boyligini tashkil qiladi. Masalan, har ikkala xalqda choyshab ham ma'lum ma'noda to'y atributi sifatida uning leksik tizimidan o'rin oladi.

Inglizlarda cherkovda nikoh o'qish jarayonida kelin va kuyovning boshlariga toj kiydiriladi. Shuning uchun ularda “toj” so'zi ham ritual leksika hisoblanadi, ammo o'zbeklarda bu odat yo'qligi bois, toj marosim leksikasi hisoblanmaydi.

Uzuk ham marosim leksikasi hisoblanadi. O'zbeklarda shibirma, oybaldoq, zebigardon, tillaqosh, bilakuzuk kabi kelinchaklar taqinchoqlarining nomi ham marosim leksikasi sifatida qo'llanadi.

Demak, bunday so'zlar alohida qo'llanishi ham, marosim leksikasi sifatida qo'llanishi ham mumkin.

Kelin-kuyov stoli – ular o'tiradigan joyni ko'rsatib turadi. Bu birikma tilimiz uchun olinma birikmalardan hisoblanadi.

Sovchilik nikohning muhim rasmiy belgisidir, shuning uchun anʼanaviy ma'noda butun to'y shu bilan boshlanadi. “To'y” so'zining etimologiyasi to'g'ridan-to'g'ri “matchmaker”, “to woo” so'zlariga ishora qiladi. Sovchilik sotuvchilar va oluvchilar, kelin uchun kuyovning elchisi ma'nolarini bildiradi.

Keyingi paytlarda to'ylarimizga kirib kelgan “to'y torti” birikmasi ham britaniyaliklar orasida to'y ziyofatining ajralmas qismidir. Xususan, uni turli ranglar bilan bezatish, ustiga har xil tar mevalarni (masalan, malina, maymunjon, qulupnay, olma bo'lagi kabi) terib oro berish oilaning baxtli, serfarzand bo'lishi niyatini ifoda etgan.

Ingliz til madaniyatida “to'y” tematik guruhini tashkil qiladigan leksikani tahlil qilganda, o'ziga xos nominasiyalar topiladi. Ulardan biri “O'zaro nikoh” (intermarriage), “miscegenasiya” (miscegenation), ya'ni turli irq vakillari yoki qarindoshlar o'rtasidagi nikoh” tushunchalaridir. Albatta, bunday tushunchalar o'zbek til madaniyati uchun ham xosdir. Faqat o'zbek tilida ko'pincha “qarindoshlar

